

References:

1. СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022-2026 ГОДЫ, Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Постановление Президента Республики Узбекистан “Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии” 22 августа 2019 г., № ПП-4422, <https://lex.uz/en/docs/4486127>
3. A review of solar photovoltaic levelized cost of electricity, K. Branker, M.J.M. Pathak, J.M. Pearce, *Renewable and Sustainable Energy Reviews* 15 (2011) 4470– 4482, © 2011 Elsevier Ltd.
4. Santos, J. J. C. S., Palacio, J. C. E., Reyes, A. M. M., Carvalho, M., Freire, A. J. R., & Barone, M. A. (2018). Concentrating Solar Power. *Advances in Renewable Energies and Power Technologies*, 1(2), 373–402. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-812959-3.00012-5>
5. Concentrating Solar Power, Santos, José J.C.S. Palacio, José C.E. Reyes, Arnaldo M.M. Carvalho, Monica Freire, Alberto J.R. Barone, Marcelo A. *Advances in Renewable Energies and Power Technologies*, ©IRENA 2012

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI BILAN TA‘MINLASHNING MOLIYAVIY IMKONIYATLARI

F.A. Masharipova

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
Tabiiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning milliy xavfsizligining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tushuncha kishilar faol va sog‘lom hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqatdan jismoniy va iqtisodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan vaziyat bo‘lib hisoblanadi. Bu borada jahon oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risidagi Rim deklaratsiyasi (1996-y.) qabul qilingan bo‘lib, unda har bir insonning yetarli oziq-ovqat va ochlikdan xalos bo‘lish huquqiga mos keladigan xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqatdan foydalanish huquqini ta‘minlash uchun javobgarlikni mavjudligi ta‘kidlangan [1].

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning agrar-iqtisodiy siyosati asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib qaraladi. Umumiy shaklda u har qanday milliy oziq-ovqat tizimining harakatlanish yo‘nalishini tashkil qiladi. Shu ma‘noda oziq-ovqat xavfsizligiga nisbatan intilish doimiy vazifa va jarayondir. Shu bilan birga, bunga erishish uchun iqtisodiy rivojlanishni ustuvor yo‘nalishlari va qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirish mexanizmlari o‘zgarib boradi [2].

Oziq-ovqat xavfsizligi o‘z ahamiyatidan kelib chiqib quyidagi keltirilgan unsurlarni o‘z ichiga oladi:

- yetarli, xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat;
- aholi ijtimoiy guruhlarining hajm va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari;
- milliy oziq-ovqat tizimi va uning iqtisodiy mustaqilligi;
- mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlashga ta‘sirini kamaytirish;
- barqarorlik, ya‘ni milliy oziq-ovqat tizimining kengaygan rejimda rivojlanishi[3].

Shu munosabat bilan oziq-ovqat siyosati ishlab chiqarish, tashqi savdo, saqlash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish, shuningdek, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini adolatli taqsimlash, qishloq joylarini ijtimoiy rivojlantirish muammolarini tizimli va samarali hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida qaraladi.

Bugungi kunda dunyoda 7,08 mlrd. nafarga yaqin kishi istiqomat qiladi. Har bir insonni to‘g‘ri oziqlantirish uchun dunyoga 2800 mln. tonna don zarur bo‘ladi. Shundan, global ishlab chiqarish hajmi 2100 mln. tonnani tashkil qiladi. Butun dunyo bo‘ylab 868 mln. nafardan ziyod kishi to‘yib ovqatlanmaydi va ularning 850 mln. nafari esa rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi [4]. Bu yerda dunyo aholisining ko‘payib borishi natijasida oziq-ovqat tanqisligini bartaraf etish uchun oziq-ovqat xavfsizligi muammosini bartaraf etish yotadi. Prognozga ko‘ra, 2050-yilgacha cheklangan infratuzilmalarda global oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini 70 foizga oshirish lozim.

Oziq-ovqat xavfsizligining kuchayishi bo‘yicha Jahon banki so‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra [6], mahalliy oziq-ovqat narxlari inflyatsiyasi yuqoriligicha qolmoqda. Ya‘ni, 5 foizdan yuqori inflyatsiya past daromadli mamlakatlarning 57,9 foizida, o‘rtacha daromadi past bo‘lgan mamlakatlarning 71,7 foizida, yuqori o‘rtacha daromadli mamlakatlarda esa o‘zgarish yo‘qligida va yuqori daromadli mamlakatlarning esa 45,5 foizida qolmoqda. Oziq-ovqat yetishmasligi uchun unga inqiroziga qarshi dastur uni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu hujjat jahonda global tarmoq tomonidan ishlab chiqilgan 2023-yilgi moliyalashtirish oqimlari va oziq-ovqat inqirozi hisobotida o‘z aksini topadi. Unga asosan, oziq-ovqat inqiroziga duch kelgan mamlakatlar va hududlar tashqi moliyalashtiriladi. Mazkur hujjatda oxirgi 7 yil ichida global oziq-ovqatga muhtoj kishilarga gumanitar yordamning 3/4 qismi va global rivojlanish uchun ajratilgan mablag‘larning esa 1/3 qismi berilgan. Ushbu sarmoyalarga qaramay, hisobotda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash muammosini hal qilish muvaffaqiyatsiz ekanligi ta‘kidlanadi. 2022-yilda oziq-ovqat sohasiga ajratilgan mablag‘lar yuqori ko‘rsatkichiga qaramay, oziq-ovqat xavfsizligi yuqori darajaga yetdi. Hisobotda oziq-ovqat xavfsizligi sabablarini bartaraf etish va uzoq muddatda insonparvarlik ehtiyojlarini kamaytirish uchun gumanitar moliyalashtirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqilgan [5]. Unga asosan, qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat bozorlari va savdosi oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, aholimizga munosib yashash sharoitlarini yaratish va bandlikni ta‘minlash bo‘yicha barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasida oziq-ovqat mahsulotini eksport qiluvchi subyektlarga moliyaviy resurslar ajratilishi alohida ta‘kidlanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi, sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlash va aholi qatlamlarining sog‘lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan

foydalanishning iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish strategiyaning ustuvor yo’nalishi bo’lib hisoblanadi.

2025-yil yakunigacha oziq-ovqat xavfsizligi va iste’moli sohasida salohiyatni barqaror rivojlantirish, xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoringini yuritish hamda xavf-xatarlar to’g’risida xabardor qilishni tashkil etish maqsadida yaxlit idoralararo milliy axborot platformasi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, 2025-yil 1-martgacha qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning bozordagi narx-navolari to’g’risidagi doimiy, ishonchli va aniq ma’lumotlar bilan ta’minlaydigan “Elektron agrosanoat bozori” axborot tizimi ishga tushirilib, milliy axborot platformasi bilan integratsiyasi amalga oshiriladi.

Qishloq xo’jaligi strategik sarmoyaviy harakatlar qilishni talab qiladi va oziq-ovqat bilan ta’minlanmagan kambag’allar qisqartirishga muhtoj bo’ladi. Mamlakatimizda kambag’al aholi sonini qisqartirish borasida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi “Moddiy yordam va ko’makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 250-son qaror qabul qilingan. Qarorda “Temir daftar”ni yuritish orqali ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og’ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha maxsus ilovasi ham ishlab chiqilgan. Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og’ir bo’lgan “Temir daftar”, “Ayollar” va “Yoshlar” daftarlariga kiritilgan oilalarga “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’lari ajratilgan moddiy yordam berilib kelmoqda.

Fikrimizcha, oziq-ovqat xavfsizligi, xususan, uy xo’jaligining yetarli miqdorda oziq-ovqatga ega bo’lish qobiliyatini nazarda tutsa-da, moliyaviy resurslardan uy xo’jaliklarining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. Moliyaviy manbalar daromad, bandlik, davlat xavfsizlik dasturlarida ishtirok etish va jamg’armalar kabi aktivlarga egalik qilishni o’z ichiga oladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda oziq-ovqat xavfsizligi tarqalishini baholash muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Daromad moliyaviy resurslar ko’rsatkichlari bo’lib, jamg’armalardan foydalanish, daromad yoki ish joyidagi o’zgarishlar, xayriya oziq-ovqatlaridan foydalanish va davlat dasturlarida ishtirok etish kabi qo’shimcha choralarni o’z ichiga oladi.

Uy xo’jaliklari moliyaviy resurslarning o’zgarishiga sezgir va uning yordamiga muhtoj bo’ladi. Oziq-ovqat xavfsizligi darajasi va moliyaviy resurslar va ruhiy salomatlik o’rtasidagi bog’liqlik uy xo’jaliklariga yo’naltirilgan siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi. Turli inflyatsiya, ob-havo hodisalari, geosiyosiy mojarolar va iqtisodiy inqirozlar ta’siri tufayli dunyo bo’ylab oziq-ovqat xavfsizligi darajasi oshib bormoqda. Buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar arzonroq xarajat qilish evaziga oziq-ovqat yetkazib berishda qiyinchilikka uchraydilar. Bu esa qishloq oziq-ovqat tizimida yangi texnologiyalarni joriy qilish va moliyaviy mustaqillikka erishishni talab qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yuqori bahosi oziq-ovqat xavfsizligi, makroiqtisodiy barqarorlik va siyosiy xavfsizlikka ta’sir ko’rsatadi. Hozirgi kunda rivojlanayotgan global moliyaviy inqiroz va iqtisodiy pasayish oziq-ovqat

narxlarining past darajaga tushishiga olib keldi. Moliyaviy inqiroz qishloq xo‘jaligiga sarmoya kiritish zarur bo‘lgan davrda kapitalning mavjudligini pasaytirdi. Oziq-ovqat va moliyaviy inqirozlar rivojlanayotgan iqtisodiyot va kambag‘al aholiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada kambag‘al aholi va qishloq xo‘jaligidagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi keltirilgan chora-tadbirlarni to‘plamini amalga oshirish lozim:

- qishloq xo‘jaligining kambag‘al qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam berish;

- bozor o‘zgaruvchanligini kamaytirish;

- ijtimoiy himoya va bolalar ovqatlanishini kengaytirish.

Ijtimoiy rivojlanish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga e‘tibor qaratilib, bugungi kunda oziq-ovqat ishlab chiqarish korxonalari bosqichini nazorat qilib borish lozim. Xususan, mahsulotlarni saqlash uskunalari boshqarish oziq-ovqat korxonalari uchun ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Unga asosan, oziq-ovqatlarni saqlash uchun quyidagi qoidalar muhim sanaladi:

- oziq-ovqat materiallari ombori jihozlari to‘g‘risidagi nizom;

- oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash ombori uskunalari qoidalari;

- tayyor oziq-ovqat omborlarini jihozlash to‘g‘risidagi nizom.

Xulosa shuki, oziq-ovqat sanoati jahon miqyosida doimo ishlab chiqariladigan sohaga aylandi. Oziq-ovqat sanoati butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabga javob beradigan ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar, distribyutorlar va chakana sotuvchilarning global tarmog‘idan iborat bo‘ladi. Oziq-ovqat ta‘minoti zanjirida oziq-ovqat ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga ishlab chiqarish, qayta ishlash, tarqatish, chakana savdo va iste‘mol jarayonlari orqali o‘tadi. Oziq-ovqat mahsulot sifatida ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini iste‘molchiga yetkaziladi. Shu bilan birga, iste‘molchilar oziq-ovqat uchun to‘lanadigan pullar iste‘molchidan chakana savdoga tomon harakatlanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat ta‘minoti zanjiri ishlashini boshqarish iste‘molchilarni xavfsiz, yuqori sifatli, barqaror ishlab chiqarilgan va kafolatlangan mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirishga qaratiladi. Boshqariladigan ta‘minot zanjiri ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy afzalliklarga ega бўлади. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimiga ega bo‘lgan korxonalar uzoq tadqiqotlar va izlanishlar natijasida oziq-ovqat xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlar ta‘sir ko‘rsatadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Римская декларация по всемирной продовольственной безопасности. Архивировано 19 мая 2014.

2. Ефимов А.Б. Организационно-экономический аспекты достижения продовольственной безопасности в России. Автореферат диссертации на соискание звания кандидата экономических наук, 2009. Архивировано из оригинала 24 марта 2012.

3. Новосёлова Н.Н. Управление функциональным развитием регионального зарнопродуктового комплекса. / Автореферат диссертации на соискание звания кандидата экономических наук, 2009. Архивировано 24 марта 2012 года.

4. Akash Mozammel, Hoque Sukanta, Mondal Satish Adusumilli. Chapter four. Sustainable livestock production and food security, 2022. – p. 71-90.

5. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони ПФ-60 сонли. 2022-йил. 28-январь.

6. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/brief/food-security-update>